

**TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) TEXNOLOGIYASINING
INGLIZ TILINI O‘QITISHDAGI ROLI VA AMALIY QO‘LLANILISHI**

Mamasidiqova Hafiza Mashrabboy qizi

Mingbuloq tuman 3-son texnikumi Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Tel: 950851602

Gmail:hafizamamasidiqova2000@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Task-Based Language Teaching (TBLT) – topshiriqqa asoslangan til o‘qitish texnologiyasining mohiyati, nazariy asoslari hamda ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi roli atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda TBLT texnologiyasining kommunikativ yondashuvdan farqli jihatlari, tarkibiy bosqichlari (oldindan vazifa, vazifani bajarish va vazifadan keyingi bosqich) hamda zamonaviy ta’lim muhitida ushbu texnologiyaning amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari yoritib berilgan. Maqola muallifi pedagogik kuzatish, anketa-so‘rovnoma va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan holda, TBLT yordamida talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalari, leksik zaxirasi va kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanishini ko‘rsatib bergan. Xulosa qismida TBLT texnologiyasini O‘zbekistonning barcha ta’lim muassasalarida samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: topshiriqqa asoslangan o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, pedagogik texnologiya, vazifa, interaktiv ta’lim, lingvistik ko‘nikma.

Annotation: This article comprehensively analyses the essence and theoretical foundations of Task-Based Language Teaching (TBLT) technology, as well as its role in the process of teaching English as a foreign language. The study highlights the distinctive features of TBLT compared with the traditional communicative approach, its structural stages (pre-task, task cycle and post-task), and the practical possibilities of applying this technology in modern educational settings. Through pedagogical observation, questionnaire surveys and comparative analysis, the author demonstrates that TBLT significantly improves learners’ oral communication skills, lexical range and overall communicative competence. The conclusion provides recommendations for the effective implementation of TBLT technology in all educational institutions of Uzbekistan.

Keywords: task-based learning, communicative competence, English language, pedagogical technology, task, interactive learning, linguistic skill.

Аннотация: В настоящей статье всесторонне анализируется сущность и теоретические основы технологии обучения иностранному языку на основе заданий (Task-Based Language Teaching – TBLT), а также её роль в процессе преподавания английского языка. В исследовании раскрыты отличительные

особенности TBLT от традиционного коммуникативного подхода, её структурные этапы (предзадание, выполнение задания и послезадание), а также практические возможности применения данной технологии в условиях современного образовательного процесса. Используя методы педагогического наблюдения, анкетирования и сравнительного анализа, автор показывает, что технология TBLT значительно повышает уровень устной речи, лексического запаса и коммуникативной компетенции обучающихся. В заключении представлены рекомендации по эффективному внедрению технологии TBLT во всех образовательных учреждениях Узбекистана.

Ключевые слова: обучение на основе заданий, коммуникативная компетенция, английский язык, педагогическая технология, задание, интерактивное обучение, лингвистические навыки.

Kirish

XXI asr globallashuv jarayoni ingliz tilini xalqaro muloqot, ilm-fan va texnologiya tili sifatida yanada mustahkamlab, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Shu munosabat bilan an'anaviy grammatik-tarjima va audio-lingval metodlardan farqli ravishda, talabalarning real hayotiy vaziyatlarda muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar pedagogika fanida birinchi o'ringa chiqdi¹. Aynan shu ehtiyoj zaminida XX asrning 80-yillari oxirida shakllangan Task-Based Language Teaching (TBLT) – topshiriqqa asoslangan til o'qitish texnologiyasi bugungi kunda dunyoning ko'plab universitetlarida keng qo'llanilmoqda.

TBLT texnologiyasining nazariy asoslari M. Long, D. Nunan, R. Ellis, J. Willis kabi tilshunos-metodistlarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning fikricha, til faqat shaklan emas, balki ma'noli faoliyat orqali eng samarali o'zlashtiriladi². Boshqacha aytganda, talaba grammatik qoidalarni alohida yodlash o'rniga, mazmunli topshiriqlarni hal qilish jarayonida tilni tabiiy ravishda o'rganadi. Bu yondashuv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-may kungi PQ-2995-son qarori va keyingi me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan chet tillarini o'qitishni tubdan isloh qilish vazifalariga to'la mos keladi.

Shu bilan birga, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida TBLT texnologiyasi haligacha tizimli ravishda joriy etilmagan, ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy ko'rgazma-tushuntirish usullariga sodiq qolmoqda³. Mazkur maqolaning maqsadi – TBLT texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini umumlashtirish, uning ingliz tilini

¹Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – B. 174–177.

²Long M.H. Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2015. – B. 5–9.

³Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B. 112.

o'qitishdagi rolini ko'rsatib berish va amaliy qo'llanilishi bo'yicha asosli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ob'ekti sifatida ingliz tili o'qitiladigan auditoriyalardagi pedagogik jarayon, predmeti sifatida esa TBLT texnologiyasining metodik xususiyatlari belgilab olingan.

Adabiyotlar tahlili

Topshiriqqa asoslangan o'qitish g'oyasi dastlab N.S. Prabhu tomonidan Hindistondagi "Bangalor loyihasi" (1979–1984) doirasida ilgari surilgan. Olim o'zining mashhur "Second Language Pedagogy" asarida talabalar e'tibori til shakli emas, balki ma'noga qaratilgandagina til o'zlashtirilishi haqidagi gipotezani ilgari surdi⁴. Prabhuning fikriga ko'ra, til o'rganish ongli grammatik mashqlar emas, balki muammoni hal qilishga yo'naltirilgan kognitiv faoliyat natijasidir. Britaniyalik metodist J. Willis 1996-yilda nashr etilgan "A Framework for Task-Based Learning" asarida TBLTning eng mukammal pedagogik modelini taklif qildi. Uning modeli uch asosiy bosqichdan iborat: oldindan vazifa (pre-task), vazifa sikli (task cycle) va til tahlili (language focus). Willisning fikricha, vazifa shunday tuziladiki, u haqiqiy hayotiy aloqa maqsadini, aniq natijani va mustaqil til ishlatish imkoniyatini birgalikda ta'minlashi shart⁵. Bu yondashuv keyinchalik global metodikada eng ko'p qo'llaniladigan andoza sifatida tan olindi.

R. Ellis o'zining "Task-based Language Learning and Teaching" (2003) monografiyasida "vazifa" va "mashq" tushunchalari o'rtasidagi tafovutni aniq belgilab berdi. Olim ta'kidlashicha, haqiqiy vazifa to'rtta mezonga javob berishi kerak: birinchidan, asosiy diqqat ma'noga qaratilishi; ikkinchidan, ma'lumot, fikr yoki munosabat almashinuvi mavjud bo'lishi; uchinchidan, talaba o'zining lingvistik resurslariga tayanishi; to'rtinchidan, aniq kommunikativ natija ko'zlanishi lozim⁶. Ushbu mezonlar TBLT amaliyotida vazifalarni an'anaviy mashqlardan farqlashda asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

M. Long, P. Skehan va D. Nunan tadqiqotlari TBLTning kognitiv-psixolingvistik asoslarini chuqurlashtirishga qaratilgan. P. Skehan til o'rganishni cheklangan e'tibor resurslari nazariyasi nuqtai nazaridan tushuntirib, vazifaning murakkablik darajasi (task complexity) talabaning roviylik (fluency), aniqlik (accuracy) va murakkablik (complexity) ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qilishini empirik isbotladi. M. Long o'zining "Interaction Hypothesis" nazariyasi orqali til o'zlashtirishda muzokara va aloqa jarayonidagi ma'no qayta ishlanishi (negotiation of meaning) markaziy o'rin tutishini ko'rsatib berdi. D. Nunan esa o'quv dasturlarini vazifaga asoslangan tarzda loyihalashning amaliy modellarini taklif qilib, real hayotiy vazifalar (real-world tasks) va pedagogik vazifalar (pedagogical tasks) o'rtasidagi farqlarni nazariy jihatdan asoslab berdi.

⁴Prabhu N.S. Second Language Pedagogy. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – B. 24.

⁵Willis J. A Framework for Task-Based Learning. – London: Longman, 1996. – B. 38.

⁶Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – B. 16.

Mahalliy mualliflardan J. Jalolov, O. Hasanboyeva, M. Iriskulov, Sh. Kuldashv va boshqalarning ishlarida TBLT zamonaviy chet til o'qitish texnologiyalari qatorida ko'rib chiqilsa-da, uning O'zbekiston ta'lim muhitiga moslashtirilgan tizimli modeli hozirgacha to'liq ishlab chiqilgan emas. Aksariyat tadqiqotlar nazariy ko'rib chiqish darajasidan oshmasdan, amaliy eksperimental natijalar bilan to'ldirilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni qisman to'ldirishga, xususan TBLTning O'zbekiston oliy ta'lim muhitidagi samaradorligini empirik tarzda baholashga qaratilgan.

Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini sifat (qualitative) va miqdor (quantitative) usullarini birlashtirgan aralash tadqiqot dizayni tashkil etdi. Eksperiment 2024–2025-o'quv yili davomida bir oliy ta'lim muassasasining ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabalari (jami 60 nafar) ishtirokida o'tkazildi. Talabalar tasodifiy tarzda ikki guruhga taqsimlandi: eksperimental guruhda (30 nafar) TBLT texnologiyasi, nazorat guruhida (30 nafar) esa an'anaviy kommunikativ metod qo'llanildi⁷. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: (1) ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; (2) pedagogik kuzatish – mashg'ulotlarda talabalarning faolligi, og'zaki nutq sifati va vazifa bajarish dinamikasini tizimli kuzatib borish; (3) anketa-so'rovnoma 25 ta savoldan iborat anketa orqali talabalarning motivatsiyasi va o'z-o'zini baholashini aniqlash; (4) testlash semestr boshi va oxirida o'tkazilgan kirish va yakuniy testlar; (5) qiyosiy-statistik tahlil natijalarni SPSS dasturi yordamida t-mezon orqali baholash⁸. Eksperimental mashg'ulotlarda Willisning uch bosqichli modeli asos qilib olindi. Pre-task bosqichida o'qituvchi mavzuni taqdim etdi va kerakli leksik birliklarni faallashtirdi (5–10 daqiqa). Task cycle bosqichida talabalar juftlik yoki kichik guruhlarda axborot almashinuvi (information gap), muammoni hal qilish (problem-solving), fikr almashish (opinion exchange) kabi vazifalarni bajardilar (25–30 daqiqa). Post-task bosqichida til shakllarining tahlili va qayta ishlash amalga oshirildi (10–15 daqiqa). Vazifalarni loyihalashda Bygate, Skehan va Swain tomonidan taklif qilingan vazifani murakkablashtirish parametrlari (kognitiv yuk, vaqt bosimi, axborot tuzilishi) hisobga olindi⁹.

Tadqiqot davomida vazifalar turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi: axborot almashinuviga oid vazifalar (information-gap tasks) 30 %, muammoni hal qilishga yo'naltirilgan vazifalar (problem-solving tasks) 25 %, fikr-mulohaza vazifalari (opinion-exchange tasks) 20 %, ijodiy-loyihaviy vazifalar (creative/project tasks) 15 %, qiyosiy va tartiblash vazifalari (comparing and ordering tasks) 10 %. Mashg'ulotlar haftasiga ikki marta, har biri 80 daqiqadan o'tkazildi va jami 24 ta dars davomida olib borildi. Vazifalarning mavzuviy doirasi talabalarning yosh xususiyatlari va

⁷Nunan D. *Task-Based Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – B. 41.

⁸Skehan P. *A Cognitive Approach to Language Learning*. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – B. 95.

⁹Bygate M., Skehan P., Swain M. *Researching Pedagogic Tasks: Second Language Learning, Teaching and Testing*. – Harlow: Pearson Education, 2001. – B. 11.

qiziqishlariga moslashtirilib, sayohat, ekologiya, kasb tanlash, raqamli texnologiyalar, madaniyatlararo muloqot kabi kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan sohalarni qamrab oldi.

Natija va xulosa

Olib borilgan empirik tadqiqot natijalari TBLT texnologiyasining ingliz tilini o'qitishdagi yuqori samaradorligini tasdiqladi. Eksperimental guruh talabalarining yakuniy testdagi o'rtacha ko'rsatkichi 100 ballik shkalada 84,3 ballni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 71,8 ballga teng bo'ldi. Ayniqsa, og'zaki nutq ko'nikmasi (speaking) bo'yicha farq sezilarli bo'lib, eksperimental guruhda o'sish 22,4 % ga, nazorat guruhida esa atigi 9,1 % ga teng bo'ldi¹⁰. Bu farq t-mezon yordamida statistik jihatdan ishonchli ekanligi isbotlandi. Sifat ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, TBLT muhitida tahsil olgan talabalar nafaqat lingvistik aniqlik, balki kommunikativ moslashuvchanlik, jamoaviy ishlash ko'nikmasi va o'zaro javobgarlik tuyg'usini ham yuqori darajada o'zlashtirgan. Anketa natijalariga ko'ra, eksperimental guruh talabalarining 87 % i mashg'ulotlardan qoniqish hosil qilganini, 91 % i esa ingliz tilida fikr bildirishga bo'lgan ishonchi sezilarli oshganini bildirdi. Bu raqamlar R. Ellis ta'kidlaganidek, vazifaga asoslangan o'qitish talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradigan eng samarali pedagogik strategiyalardan biri ekanligini tasdiqlaydi¹¹.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bir qator amaliy qiyinchiliklar ham aniqlandi: (1) o'qituvchilarning TBLTga maxsus tayyorgarligi yetarli emasligi; (2) auditoriyalarning kichikligi va texnik ta'minotning cheklanganligi; (3) baholash mezonlarining an'anaviy testlardan farq qilishi. Bu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish, raqamli platformalarda interaktiv vazifalar ombori yaratish va yangi baholash tizimini ishlab chiqish zarur¹².

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Task-Based Language Teaching texnologiyasi zamonaviy ingliz tilini o'qitishda nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki funksional kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Mazkur texnologiya talabalarni real hayotiy vaziyatlarda mustaqil ravishda til qo'llashga o'rgatadi, ularning tanqidiy fikrlash, jamoaviy ish olib borish va muammolarni hal qilish kabi XXI asr ta'lim ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari TBLTni qo'llagan eksperimental guruhda ham lingvistik (leksik-grammatik), ham strategik va sotsiolingvistik kompetensiyalar bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilganini empirik tarzda tasdiqlaydi. Mazkur texnologiyani O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining ingliz tili dasturlariga tizimli ravishda joriy etish, kelajakda ma'ruzachi-lingvistlar va ingliz tili o'qituvchilari tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

¹⁰Hasanboyeva O. Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – B. 67.

¹¹Ellis R. The Methodology of Task-Based Teaching // Asian EFL Journal. – 2006. – Vol. 8, № 3. – B. 21.

¹²Long M.H. Ko'rsatilgan asar. – B. 102.

Buning uchun, birinchidan, o'qituvchilarning TBLT bo'yicha metodik tayyorgarligini oshiruvchi malaka oshirish kurslarini tashkil etish; ikkinchidan, milliy o'zlikni hisobga olgan holda mahalliy kontekstga moslashtirilgan vazifalar bankini yaratish; uchinchidan, an'anaviy testga asoslangan baholash o'rniga jarayonni baholashga e'tibor qaratuvchi yangi kriteriy-asoslangan baholash tizimini ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari, TBLTning raqamli ta'lim muhitida (masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt asosidagi platformalar, virtual realm muhirlari) qo'llanilishi alohida tadqiqot mavzusi sifatida kelajakda chuqurroq o'rganilishini taqozo etadi. TBLT texnologiyasini joriy etish jarayonida pedagogik kadrlarning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularga vazifalarni mustaqil loyihalash, talabalar tomonidan bajarilgan vazifalarni sifat ko'rsatkichlari asosida baholash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning kelgusi yo'nalishi sifatida TBLTni boshqa innovatsion yondashuvlar – CLIL (Content and Language Integrated Learning), Project-Based Learning va Flipped Classroom modellari bilan integrasiyalashgan tarzda qo'llash imkoniyatlarini empirik o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tili metodikasi sohasidagi keyingi nazariy va amaliy izlanishlar uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prabhu N.S. Second Language Pedagogy. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 153 b.
2. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. – London: Longman, 1996. – 183 b.
3. Skehan P. A Cognitive Approach to Language Learning. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 324 b.
4. Bygate M., Skehan P., Swain M. Researching Pedagogic Tasks: Second Language Learning, Teaching and Testing. – Harlow: Pearson Education, 2001. – 258 b.
5. Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 387 b.
6. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 222 b.
7. Ellis R. The Methodology of Task-Based Teaching // Asian EFL Journal. – 2006. – Vol. 8, № 3. – B. 19–45.
8. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 b.
9. Long M.H. Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2015. – 456 b.
10. Hasanboyeva O. Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 184 b.